

DOI: 10.5281/zenodo.16433125

Link: <https://zenodo.org/records/16433125>

## OLIIY TA'LIM MUASSALARI BOSHQARUVIDA INNOVATSION TASHKIL ETISH ORQALI KOMPLEKS REJALASHTIRISHNI SHAKLANTIRISH

**Karimov Muzaffar Abdumalik o'gli**

*Andijon davlat universiteti dotsenti, i.f.f.d (PhD).*

*E-mail: karimov8993@umail.uz*

**Annotatsiya:** Oliy ta'lim muassalari boshqaruviga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik tahlil qilish va prognozlash amaliyoti amalga oshirilgan. Shuningdek, Andijon davlat universiteti, Farg'ona davlat universiteti va Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida 2015-2024-yillarda ilmiy-tadqiqot faoliyatini tijoratlashtirish natijalarini ifodalovchi omil ko'rsatkichlari tahlillari yoritilgan.

**Tayanch so'zlar:** omillar, oliy ta'lim muassasalari, innovatsiyalar, ekonometrik tahlil, prognog, innovatsion salohiyat, korrelyatsion tahlil, endogen omil, bog'lanish zichli.

### KIRISH.

Hozirgi davr iqtisodiyotida firmalar ish ko'radigan raqobat muhiti innovatsiyalar ta'siri ostida mutassil o'zgarib turadi. Korxona boshqaruv tizimi markazida moddiy va ma'naviy manfaatlar, talab va ehtiyojlar asosida muntazam o'zgarib turuvchi inson kapitali turadi, chunki insonni butun hayoti davrida yangilik, innovatsiya jalb qiladi, uni tashabbuskorlikka, jamiyatda liderlikka, obro'-e'tiborli bo'lishlilikka, ma'naviy va moddiy jihatdan boy bo'lishlilikka chorlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 maydagi “Faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3697-sonli<sup>74</sup> qarorida “davlat-xususiy sheriklik shartlarida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida innovatsion loyihalar-startaplarni ishlab chiqish, sinovdan o'tkazish va o'zlashtirish, innovatsion faoliyat natijalarini transfer qilish va tijoratlashtirishni amalga oshiruvchi innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalar markazlarini tashkil etish” zarurligi qayd etilgan.

Mamlakatimiz milliy iqtisodiyoti tarmoqlarini yuqori malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida o'rta va uzoq muddatli istiqbollarga mo'ljallangan oliy ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha strategik dasturlar qabul qilingan bo'lib, ular qatoriga 2030 yilgacha oliy ta'lim tizimini rivojlantirish kontsepsiyasi<sup>75</sup>, jumladan ilmiy-tadqiqot ishlarini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlaridagi, shu jumladan hududiy miqyosdagi mavjud muammolarning innovatsion yechimiga qaratish masalalari ko'tarilgan.

<sup>74</sup> <https://lex.uz/docs/-3723272?ONDATE=06.02.2024%2000>

<sup>75</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизimini 2030 йилгача ривожлантириш контсепсиyasini тасдиqlash тўғрисида”ги ПФ-5847-сонли фармони. 08.10.2019 й. <https://lex.uz/docs/4545884>

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Oliy ta’lim muassalari boshqaruvida innovatsion tashkil etish orqali kompleks rejalashtirishni shakllantirish masalalari ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan atroflicha tadqiq etilgan. Oliy ta’lim muassalari innovatsion boshqaruvida ilmiy tadqiqot ishlarining zarurati va oliy ta’lim tizimining innovatsion boshqaruviga oid masalalar xorijiy olimlardan Kristen Rogers, Jesse Nieminen, Mekhala Roy, A.A.Poluxin, mahalliy olimlarimizdan esa S.G‘ulomov, G‘.Qosimov, O.S.Qahhorov, SH.A.Mirsaidova, D.Xolmirzaeva, N.SH.Boltaboev, N.Q.Yo‘ldoshev, S.Saidaxmedov, X.X.Rejapov va va boshqalar tadqiq etganlar.

T.Z.Teshaboev o‘ ilmiy qarashlari<sup>76</sup>da Oliy ta’limda kadrlarni baholashning miqdoriy baholash sifatida ekspert baholari yordamida amalga oshiramiz. SHu bilan birga, nomzodning tashkiliy fazilatlarini kabi pozitsiyasini aniqlash uchun avval 6-7 mezon belgilanadi:

- ishni rejalashtirish va rejalashtirish qobiliyati;
- professional malakasi;
- bajarilgan ishlar uchun javobgarlikni anglash;
- moslashuvchanlik;
- yangilikni tez o‘zlashtirish qobiliyati;
- mehnatsevarlik va samaradorlik.

Yuqorida keltirilgan mezonlar orqali OTM larda xodimlarni baholash ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Innovatsiyalarning yaratuvchisi doimo alohida shaxs bo‘lgan. Bu holatda biz innovatsiyalarga bo‘lgan qobiliyati nuqtai nazaridan alohida shaxsning psixologiyasini ko‘rib chiqishimiz kerak. SHuning uchun innovativlik psixologiyasining asosiy muammosi shaxsning ijodiy potentsialini psixologik tomondan o‘rganish mexanizmlari, shakllari va usullarini nazariy va eksperimental ravishda asoslab berish hamda samarali innovatsion faoliyat uchun psixologik komfort bilan ta’minlashdir<sup>77</sup>. Innovatsion faoliyatga bo‘lgan iqtidor yoki ijordakorlik qobiliyati faqat ayrim odamlar ega bo‘lgan tug‘ma xususiyat ekanligini faraz qilishimiz mumkin.

## NATIJALAR

2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi<sup>78</sup> kabi davlat dasturlarini kiritish mumkin.

Mamlakatimizda yildan yilga innovatsion loyihalar samaradorligini oshirish bo‘yicha jadal ishlar olib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan talaba va professor-o‘qituvchilarning innovatsion loyihalari va startaplarini rivojlantirish uchun moliyalashtirish hamda ko‘mak ko‘rsatuvchi “Innovatsion loyihalar” dasturi yo‘lga qo‘yildi. Xuddi shunday, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi tomonidan ham tadqiqotchilarga turli sohalarda ilg‘or

<sup>76</sup> T.Z.Teshaboev “Oliy ta’lim tizimida innovatsion faoliyatni axborot texnologiyalari asosida takomillashtirish yo‘llari” “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy–elektron jurnali 2018 yil №3 may-iyun

<sup>77</sup> Иванов М.М., Колупаева С.Р., Кочетков Г.Б. CSHA: управление наукой и нововведениями. — М.: Наука, 1999. — С. 23.

<sup>78</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган Ўнги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиyasi тўғрисида”ги ПФ-60-сонли фармони. 28.01.2022 й. <https://lex.uz/docs/5841063>

ilmiy izlanishlar olib borish imkonini beruvchi qator ilmiy grantlar va dasturlar tashkil etilgan. Toshkent shahridagi Inha universitetida zamonaviy innovatsiyalar va tadbirkorlik markazi tashkil etilgan. Ushbu markaz talabalarga innovatsion loyihalar va startaplarni rivojlantirishga imkon beruvchi o'quv dasturlari, murabbiylik va moliyalashtirish imkoniyatlarini taklif etadi. Xuddi shunday, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida Tadbirkorlik va innovatsiyalar markazi ishga tushirilib, talabalarga biznes g'oyalarni ishlab chiqish va soha yetakchilari bilan muloqot qilish uchun platforma yaratildi.

Aksariyat bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan va rivojlanayotgan mamlakatlar guruhida ish beruvchilar tomonidan yollanma ishchilarning yetarli darajadagi kasbiy ko'nikma va malakalarga ega emasligi bilan birgalikda, oliy ma'lumotli hodimlarning innovatsion salohiyati past ekanligi ta'kidlab o'tilgan.<sup>79</sup>

Innovatsion faoliyat jamiyatning barcha jabhalariga ta'sir ko'rsatib, yangi iqtisodiy sharoitlarda ob'ektiv tarzda iqtisodiy jarayonlar rivojlanishining tizimli omiliga aylanmoqda. SHunga muvofiq holda innovatsiyalarning jamiyat va davlat turmush faoliyatining iqtisodiy asoslariga ta'sir ko'rsatishi o'ziga xos xususiyatlari va tavsifini tahlil qilishda hamda innovatsion faoliyatini maqbullashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishda tizimli yondoshuvni qo'llash zarurligi yuzaga keladi.

Innovatsion faoliyat – yangi ijtimoiy talablarning an'anaviy me'rlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanaётgan g'oyalarning mavjud g'oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmualiy muammolarni yechishga qaratilgan faoliyat. Mohiyatiga ko'ra innovatsion faoliyat ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish asosida yangi texnologik jaraèn èki yangi takomillashtirilgan mahsulot yaratishdan iborat.<sup>80</sup>

Innovatsion faoliyatda investitsion loyihalarni amalga oshirishning asosiy umumiy tamoyillari sifatida quyidagilarni ajratish mumkin:

- investitsion loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida ularni amalga oshirishga majmuaviy yondashishni ta'minlash uchun ilmiy-texnik tahlilni tijort, moliya-iqtisodiy, ijtimoiy bilan birlashtirish zarur.

- innovatsion faoliyatdagi investitsion loyihalarni ishlab chiqish va ekspertiza qilishda loyihani amalga oshirish natijasida olinadigan innovatsion mahsulot oqimlari loyihada foydalaniladigan turli -tuman resurslar oqimlari kabi pul mablag'lari oqimi ko'rinishida taqdim etishlari kerak.

- innovatsion loyihalarning samaradorligini baholashda xarajatlar va natijalarni solishtirishni pullar qiymatini vaqtda o'zgarishini hisobga olish bilan O'tkazish zarur.

- investitsion innovatsion loyihalarni amalga oshirishda loyihani amalga oshirish bilan bog'liq noaniqlik va xatarlarni printsiplial hisobga olish zarur.

Vaqt omili hisobi loyiha samaradorligini baholashning muhim tamoyillaridan biridir. Bu hisob pullarning vaqtdagi qiymati nazariyasi tushunchalariga asoslanadi, unga ko'ra bittagina pul summasi vaqtda joriy paytgga nisbatan, masalan, inflyatsiya, pul mablag'laridan muqobil foydalanish imkoniyatlari (pulni innovatsion loyihaga

<sup>79</sup> Skills Development. The World Bank. <https://www.worldbank.org/en/topic/skillsdevelopment>

<sup>80</sup> Innovatsion ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. – Toshkent: 2015. – 208 bet.

kiritmaslik, balki bankka qo'yish mumkin va ularning qiymati vaqt davomida o'zgaradi), ushbu ob'ektga investitsiyalar kiritish bilan bog'liq xatarlar va noaniqlilik va boshqa sabablar tufayli har xil qiymatga ega bo'lishlari mumkin.

"Innovatsion loyiha" tushunchasi quyidagicha ko'rib chiqilishi mumkin:

- innovatsion faoliyatni maqsadli boshqarish shakli;
- innovatsiyalarni amalga oshirish jarayoni;
- hujjatlar majmuasi<sup>81</sup>.

Innovatsion jamoaning samarali faoliyatiga rahbar katta ta'sir ko'rsatadi. U o'zining rahbarlik qobiliyati bilan jamoaning jipsligini mustahkamlashi, unga doimo loyihaning maqsadlari va ularni bajarish muhimligi haqida eslatib turishi, uning ruhini ko'tarish va eng yuqori natijaga yo'naltirishi lozim. SHu bilan birga avtoritar yoki buyruq-ma'muriy usuldagi rahbarlikka yo'l qo'yilmaydi.

CHunki innovatsion gurux a'zosining maqomi lavozim ierarxiyasida yuqori pog'ona, ma'lumot darajasi bilan emas, balki ilgari surilayotgan g'oyalarning qimmati, uning ijodkorlik darajasi va fikrlashdagi o'zgaruvchanlik bilan belgilanadi. Innovatsion loyihalarni samarali amalga oshirish uchun jamoada manfaatlar to'qnashuvlariga yo'l qo'ymaslik lozim. Moddiy va shaxsiy manfaatlar to'qnashuvi innovatsion loyihalarni yuzaga kelmasligiga sabab bo'lishi mumkin.

### MUHOKAMA.

O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari talaba va professor-o'qituvchilarning imkoniyatlarini kengaytirish, ularga innovatsion loyihalar va ilmiy izlanishlar olib borishlari uchun zarur resurslar va ko'mak berish bo'yicha ishlar olib bormoqda. Bunga moliyalashtirish imkoniyatlari, murabbiylik va trening dasturlari, shuningdek, tadqiqot va innovatsion grantlar tashkil etish kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan talaba va professor-o'qituvchilarning innovatsion loyihalari va startaplarini rivojlantirish uchun moliyalashtirish hamda ko'mak ko'rsatuvchi "Innovatsion loyihalar" dasturi yo'lga qo'yildi.

Xuddi shunday, O'zbekiston Fanlar akademiyasi tomonidan ham tadqiqotchilarga turli sohalarda ilg'or ilmiy izlanishlar olib borish imkonini beruvchi qator ilmiy grantlar va dasturlar tashkil etilgan. Innovatsiyalar madaniyatini yuksaltirish, sohaga oid ko'nikmalarni rivojlantirish, xalqaro hamkorlikni rag'batlantirish va talabalar va professor-o'qituvchilarning imkoniyatlarini kengaytirish orqali ushbu muassasalar mamlakatda iqtisodiy o'sishni va ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlay oladigan malakali va raqobatbardosh ishchi kuchini yetishtirishga tayyor.

### 1-jadval.

#### O'zbekistonda oliy ta'lim tizimining SWOT tahlili<sup>82</sup>

| Kuchli tomonlari |           |           |           | Kuchsiz tomonlari                          |              |  |  |
|------------------|-----------|-----------|-----------|--------------------------------------------|--------------|--|--|
| 1.Ta'lim         | obektlari | mavjud    | bo'lgan   | 1.Mamlakatimiz va uning hududlarida ta'lim |              |  |  |
| hududlarning     | yuqori    | geografik | va tabiiy | sohasidagi mavjud yuqori                   | salohiyatdan |  |  |

<sup>81</sup> Yo'ldoshev N.Q, Mirsaidova Sh.A, Goldman Ye.D. Innovatsion menejment. Дарслик Т.: -2011

<sup>82</sup> O.S.Qahhorov "Oliy ta'lim tizimida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning boshqaruv mexanizmini takomillashtirish (Buxoro va Navoiy viloyatlari misolida)" 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti 08.00.13 – Menejment Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand-2021

|                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                            |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <p>salohiyati;</p> <p>2. Ta'lim obektlarida turli madaniy-maishiy va dam olish xizmatlarining mavjudligi;</p> <p>3. Ta'lim xizmatlaridan maqsadli foydalanish uchun o'sib borayotgan real talabning mavjudligi;</p> <p>4. Ta'lim xizmatlari sohasini rivojlantirishga hukumatning alohida e'tibor qaratayotganligi va uning investitsiya sifatida e'tirof etilishi;</p> <p>5. Xavfsizlik nuqtai nazaridan mamlakatning tinch, osoyishtaligi va inson daxlsizligining ta'minlanganligi.</p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                         | <p>maksimal darajada foydalana olmaslik;</p> <p>2. O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulotida va ish bilan bandlikda ta'lim sohasi ulushining juda pastligi;</p> <p>3. Ta'lim sohasiga investitsiyalar jalb etishning past darajadali;</p> <p>4. Ta'lim xizmatlarini taklif etuvchi obektlar joylashgan hududlarda zaruriy infratuzilmalar va klasterlarning yetarli darajada shakllanmaganligi;</p> <p>5. Ko'rsatilayotgan ta'lim xizmatlari uchun narxlarning xizmatlar sifatiga nomutanosibli.</p>                                                                                                                |
| Imkoniyatlar                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                       | Xatarlar                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                   |
| <p>1. O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yo'nalishlari uchun ta'lim bozorini rivojlantirish tendensiyasi hamda ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlari va chora-tadbirlarning ishlab chiqilganligi;</p> <p>2. Ta'lim sohasidagi investitsion muhit va investitsion jozibadorlikni oshirish</p> <p>3. Ta'lim xizmatlari ko'rsatish geografiasini hududlar bo'yicha kengaytirish imkoniyatlari;</p> <p>4. Yangi quvvatlarni ishga tushirish va filiallarni shakllantirish asosida yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyatlari.</p> <p>5. Oliy ta'lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini ishlab chiqish;</p> <p>6. Har bir kadr faoliyati kesimidagi individual-anqlashtirilgan darajalarda tabaqalashtirilgan strategik rejalashtirish asosida takomillashtirish imkoniyatlari</p> | <p>1. Jahon ta'lim xizmatlari bozori bilan bog'liq iqtisodiy siyosatning o'zgarishi;</p> <p>2. Xalqaro axborot tizimlariga qo'shilish natijasida xalqaro bozordagi yetakchi ta'lim xizmatlari bozori bilan raqobatbardoshlikning kuchayib borayotganligi;</p> <p>3. Raqobatchilarning paydo bo'lishi natijasida xizmatlar va daromadlarning raqobatchilar o'rtasida taqsimlanishi;</p> <p>4. Jahonda ta'lim xizmatlari bozorida talab va taklif omilining o'zgarishi, narx konyu'nkturasidagi o'zgarishlar, sifatli xizmat ko'rsatish uchun standart va talablarning doimiy ravishda o'zgarishi va h.k. imkoniyatlari;</p> |

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda 2021 yilda ilmiy tadqiqotchilar soni 30,3 ming kishini tashkil etgan. Bu 2019 yilga nisbatan 15,2%, 2020 yilga taqqoslaganda, 18,8 %ga ko'p hisoblanadi. SHulardan ilmiy tadqiqot ishlarini bajargan fan doktorlari 2919 kishi, fan nomzodlari va falsafa doktorlari (PhD) 5911 kishini tashkil etadi. Respublika bo'yicha tayanch doktorantlar soni 2021 yilda 3880 kishiga yetgan. Bu 2020 yilga nisbatan 45 %dan oshiqroqdir. Eng ko'p doktorantlar Toshkent shahri (1557 kishi) hamda Samarqand viloyati (495) ulushiga to'g'ri keladi.

**3-jadval.**

**Oliy ta'lim tizimida ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari bilan shug'ullanadigan xodimlar soni**

| Nomi                                                                                                | 2021  |       | 2022  |       | 2023  |       |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|
|                                                                                                     | nafar | jami  | nafar | jami  | nafar | jami  |
| Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari bilan shug'ullanuvchi xodimlar soni (o'rindoshsiz) | 2799  | 13644 | 2830  | 13552 | 3477  | 14049 |

|                                                                                                                              |       |       |       |       |       |       |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|
| Mutaxassislar-tadqiqotchilar                                                                                                 | 2225  | 8593  | 2059  | 8402  | 2667  | 9031  |
| Texnik xodimlar                                                                                                              | 231   | 1780  | 317   | 1835  | 376   | 1960  |
| Yordamchi xodimlar                                                                                                           | 237   | 1899  | 337   | 1910  | 318   | 1742  |
| Boshqalar                                                                                                                    | 106   | 1372  | 117   | 1405  | 116   | 1316  |
| Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini pedagogik faoliyati bilan birga bajaradigan ilmiy-pedagogik xodimlar soni | 22192 | 22192 | 23278 | 23287 | 22935 | 22935 |

2021-2023 yillar mobaynida ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari bilan shug'ullanadigan xodimlar soni o'sishda davom etmoqda. Ilmiy-pedagogik faoliyat bilan birga ilmiy-tadqiqot ishlarini olib boradigan xodimlar soni quyidagicha o'zgarishlarni ko'rsatmoqda: 2021 yilda 221 ta, 2022 yilda 23287 ta, 2023 yilda esa 22935 nafar xodim ushbu faoliyatni olib borgan. Bu yerda 2022 yilda eng yuqori ko'rsatkich kuzatilgan bo'lsa-da, 2023 yilda biroz kamayish kuzatilgan. 2021-2023 yillar mobaynida Oliy ta'lim sektoridagi ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarida qatnashayotgan xodimlar soni sezilarli darajada o'zgargan. Tadqiqotchilar va texnik xodimlar sonida o'sish kuzatilgan bo'lsa-da, yordamchi va boshqa xodimlar sonida pasayish qayd etilgan. Ilmiy-pedagogik faoliyat bilan shug'ullanadigan xodimlar soni eng yuqori nuqtaga 2022 yilda yetgan, ammo 2023 yilda pasaygan.

## XULOSA

O'zbekistonda 2017–2020 yillarda ilmiy va innovatsion faoliyat natijalari asosida jami 33175 ta maqola, 62470 ta ma'ruza hamda ma'ruza tezislari nashr qilingan. Maqolalarning qariyb 40 %, tezislarning 28 %dan ko'pi xalqaro konferentsiya materiallarida chop etilgan. Scopus ma'lumotlar bazasida mamlakatimiz olimlari tomonidan 2019 yilda 1520 ta, 2020 yilda 3520 ta maqola e'lon qilingan. SHu davrda Scopus ma'lumotlar bazasidan chiqarib tashlangan 1292 ta maqola ham nashrdan chiqqan. Bunday holatlar, asosan, Scopus jurnallari tahririyatlari tomonidan qo'yilgan talablar haqidagi axborotlar mualliflarga to'liq yetib bormayotgani tufayli yuz berayotganini e'tirof etish lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. T.Z.Teshaboyev "Oliy ta'lim tizimida innovatsion faoliyatni axborot texnologiyalari asosida takomillashtirish yo'llari" "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy-elektron jurnali 2018 yil №3 may-iyun
2. Иванов М.М., Колупаева СР., Кочетков Г.Б. США: управление наукой и нововведениями. — М.: Наука, 1999. — С. 23.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "2022-2026 йилларга мўлжалланган Ўнги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиyasi тўғрисида"ги ПФ-60-сонли фармони. 28.01.2022 й. <https://lex.uz/docs/5841063>
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш kontseptsiyasini tasdiqlash тўғрисида"ги ПФ-5847-сонли фармони. 08.10.2019 й. <https://lex.uz/docs/4545884>

5. Иванов М.М., Колупаева СР., Kochetkov Г.Б. CSHA: управление наукой и нововведениями. — М.: Наука, 1999. — С. 23.
6. Yo'ldoshev N.Q, Mirsaidova Sh.A, Goldman Ye.D. Innovatsion menejment. Дарслик Т.: -2011
7. Innovatsion ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. – Toshkent: 2015. – 208 bet.
8. O.S.Qahhorov "Oliy ta'lim tizimida raqabatbardosh kadrlar tayyorlashning boshqaruv mexanizmini takomillashtirish (Buxoro va Navoiy viloyatlari misolida)" 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti 08.00.13 – Menejment Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand-2021
9. Innovatsion ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. – Toshkent: 2015. – 208 bet
10. O.S.Qahhorov "Oliy ta'lim tizimida raqabatbardosh kadrlar tayyorlashning boshqaruv mexanizmini takomillashtirish (Buxoro va Navoiy viloyatlari misolida)" 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti 08.00.13 – Menejment Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand-2021.
11. U.A Rahimova "Iqtisodiyotni raqamli transformatsiya sharoitida O'zbekiston oliy ta'lim muassalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish yo'llari" 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati Andijon-2024;
12. Ochilov A.O. Yuqori malakali kadrlar tayyorlashni boshqarish samaradorligini oshirish: i.f.d. (DSc) diss. – T., 2018. -241 b.
13. National Report on Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan for 2017–2020. Tashkent, 2021.
14. Salimov A.A. Ta'lim sohasida inson taraqqiyoti konsepsiyasining asosiy yo'nalishlari: i.f.f.d (PhD) dis. avtoref.- Samarqand.: 2019. -55 b.
15. Usmanova R.M. Ta'lim xizmatlari bozoridagi iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish: i.f.n. diss. avtoref. T. 2012 -24 b.
16. Skills Development. The World Bank.  
<https://www.worldbank.org/en/topic/skillsdevelopment>
17. <http://www.finextra.com/news/fullstory.aspx?newsitemid=27188>.